

INNOVATSION KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY
MASHG'ULOTLAR VA PEDAGOGIK AMALIYOTNING O'RNI

Erkinova Zarina

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish ingliz til yo'nalishining 3-bosqich talabasi.

erkinovazarina2412@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18390571>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyotning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida innovatsion kompetentlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, xususan, lesson study, interfaol mashg'ulotlar hamda pedagogik amaliyot jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining samaradorligi yoritib beriladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlarni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion kompetentlik, xorijiy o'qituvchilar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, zamonaviy ta'lim texnologiyasi.

Absract. This article examines the role of practical classes and teaching practice in developing innovative competence among pre-service foreign language teachers. The study analyzes methodological factor influencing the formation of innovative competence, including the effectiveness of microteaching, lesson study, interactive learning activities, and the use of modern educational technologies during teaching practice. In addition, the importance of practical training in fostering innovative approaches, independent decision-making, and creative thinking skills in the professional development of future teachers is highlighted. The findings of the study contribute to improving the training process of future foreign language teachers.

Key words: innovative competence, pre-service foreign language teachers, practical training, microteaching, modern educational technologies.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar kundan-kun tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining nafaqat lingvistik bilimlarga, balki innovatsion kompetentlikka ham ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion kompetentlik o'qituvchining zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kreativ yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etish hamda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarga mustaqil yechim topa olish qobiliyatini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida innovatsion kompetentlikni shakllantirishda nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot muhim rol o'ynaydi. Chunki aynan amaliy faoliyat jarayonida bo'lajak o'qituvchilar o'z bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda sinab ko'rish, innovatsion metodlarni qo'llash va kasbiy refleksiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday ekan, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarning tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyotni innovatsion kompetentlikni rivojlantirish vositasi sifatida tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda innovatsion kompetentlik tushunchasi pedagogika va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi sohasida keng o'rganilmoqda.

Tadqiqotchilar innovatsion kompetentlikni o'qituvchining zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashi, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llay olishi, shuningdek, o'z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishga tayyorligi sifatida talqin qiladilar. Xususan, V. Slastenin, I.Zimnyaya, E.Passov kabi olimlar o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion faoliyatining muhimligini ta'kidlab o'tishgan.

Xorijiy til o'qituvchilarning tayyorlash jarayonida innovatsion kompetentlik masalasi chet el tadqiqotlaridan ham dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlar orqali real ta'lim muhitiga moslashuvi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va kreativ yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini qayt etiladi. Ayniqsa, microteaching va lesson study kabi metodlar o'qituvchilarning refleksiv fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari o'rganilgan bo'lsa-da, innovatsion kompetentlikni amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot orqali shakllantirishning metodik imkoniyatlari yetarlicha tizimli yoritilmagan. Shu sababli, mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tanlandi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasida tahsil olayotgan bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari, tadqiqot predmeti sifatida esa ularning innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonida amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyotning metodik imkoniyatlari belgilanadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, amaliy mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilgan microteaching metodi talabalar tomondan dars fragmentlarini rejalashtirish, innovatsion metodlarni sinab ko'rish hamda o'z faoliyatini tahlil qilish imkonini berdi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarning metodik tafakkuri va refleksiv ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar real ta'lim muhitida faoliyat olib borish orqali innovatsion yondashuvlarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Tadqiqot davomida kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik amaliyotda interfaol metodlardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning darsga bo'lgan ishonchini oshirdi va ularning kreativ fikrlashini rag'batlantirdi.

Shuningdek, lesson study texnologiyasidan foydalanish talabalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirib, dars jarayonini tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qildi.

Natijada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini kognitiv, amaliy va shaxsiy kompetentlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion kompetentlikni rivojlantirish jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarga o'z bilimlarini real vaziyatlarda qo'llash, muammoli pedagogik holatlarni hal etish va innovatsion qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talablariga to'liq mos keladi.

Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlarda keltirilgan xulosalarni tasdiqlaydi va ularni to'ldiradi. Xususan, amaliy mashg'ulotlarning tizimli tashkil etilishi va pedagogik amaliyotning innovatsion yo'naltirilganligi bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda refleksiya va o'z-o'zini baholash jarayonlarining ahamiyati ham ortib boradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot muhim metodik vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, microteaching, lesson study hamda interfaol va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini, xususan, innovatsion faoliyatga tayyorligini oshiradi.

Mazkur maqola natijalari oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyotni innovatsion yo'nalishda tashkil etish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zimnyaya I.A. Klyuchavye kompetentsil kak rezultat sovremennogo obrazovaniya.2004
2. Richards J.C.Rodgers T.S. Approaches and methods in language teaching.Cambridge: Cambridge University Press, 2014
3. Lewis C. Lesson study:A Handbook of Teacher -led instructional change.
4. Harmer J. How to Teach English. London: Longman.2015